
TA'LIMDAGI ISLOHOTLAR: TOSHLOQ TUMANIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA

Tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan maktablarda ta'lim sifatini oshirish, ta'lim muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchilar mavqeini oshirish, o'quv dasturi va darsliklar mazmunini takomillashtirish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Kuni-kecha tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari o'rganildi. Tuman XTB mudiri A.Soliyev tumandagi Investisiya dasturidan chiqqan 7-maktabda olib borilayotgan obodonlashtirish ishlari bilan tanishdi va maktabga o'quv jihozlarini keltirish va joylashtirish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berib o'tdi.

Shu kuni 8- va 25-maktablarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayonlari bilan tanishib tegishli tavsiyalar berildi. Bundan tashqari tumanda ta'lim muassasalarida maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichlarini yaxshilash, yoshlarni bandligi ta'minlash hamda ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan rahbar o'qituvchilar faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda.

2022-09-08 15:34:50